ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1365
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI	1371
Jalalova Dildora Jamolovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA.....	1375
Karshieva Marjona Alisher kizi	
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1380
Qurbonova Malika Ahmad qizi	
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	1384
Uzoqov Farhod G'afforovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI....	1388
Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1392
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI	1396
Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afforovna	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	1402
Muyassarzoda Fayziyeva	
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1408
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxeimedova Yayra Atxamovna	
JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI.....	1414
Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich	
OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR.....	1425
Zakirova Oisha	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ	1431
Сиддикова Гулноза Абдумаликовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI.....	1437
Nuraliyeva B.	



TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	1443
Raximov Xasan Shukurjonovich	
XALQARO TASHQI ISHLARDA KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MA'LUMOT DIPLOMATIYASI: AXBOROTNI STRATEGIK RAZVEDKAGA AYLANTIRISH	1450
Kurolov Maksud Obitovich	
TA'LIM BOSHQARUVIDA "YASHIL KO'NIKMALAR"NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O'TISHGA TAYYORLASH.....	1460
Esanova Shohida	
НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	1468
Хамзина Динара Рашатовна	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	1473
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA "YASHIL MENEJMENT" TIZIMINI JORIY ETISH	1482
Masharipova Sevara Bekturdi qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING INNOVATION USULLARI	1487
Marimova Indira Rasul qizi	
DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODEL.....	1492
Murodov Orif Jumayevich	
TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIY TAJRIBASI	1497
Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ГАРМОНИЗАЦИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ	1502
Киличева Ф.Б.	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRINI BAHOLASH	1507
Kurbanov Feruz Pirnazarovich, Quدراتov Islom Ismat o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН	1511
Маденова Эльмира Нзаматдиновна	
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1516
Мансуров Обид Зайнидинович	
РЕКЛАМА ХИЗМАТЛАРИ BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR.....	1522
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....	1528
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MECHANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI	1534
To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	1540
Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li	
THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION	1545
Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna	
MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1549
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
IKTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI	1554
Xashimova Salima Nigmatullayevna	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQUARISHINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1558
B.B.Mambetnazarov, Tureev Atabek Abatovich	
BUXORO VOHASINING MUSULMON ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARINI BAHOLASH: ACES 3.0 METODIKASI ASOSIDAGI TAHLIL	1563
Kurbanova Mohinur Xabib qizi	
KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQUARISH OMILLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	1568
Mustafakulova Nodira Primovna	
BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQQA TORTISHNI OPTIMAL TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI	1572
Qodirov Baxodir Qudratovich	
SUT VA SUT MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI	1577
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ВНУТРЕННИЙ АУДИТ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	1581
Шарахметов Шерзад Шаазимович	
O'ZBEKISTON "YASHIL" IQTISODIYOT SARI: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH METODLARI.....	1588
Qodirov Baxodir Tursunovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI.....	1592
Feruz Mirzoyeva Salimovna	
YASHIL O'SISH, YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH: ATAMAVIY VA O'ZARO BOG'LIQLIK MASALASI.....	1597
Djalilov Sardor Sadilloevich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMAD VA XARAJATLARNI DEKLARASIYALASHNING TUTGAN O'RNI	1601
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
DIGITAL ECONOMY AND GREEN TECHNOLOGIES: INNOVATIONS ON THE ROAD TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT	1606
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin kizi	
FARG'ONA VODIYSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI VA ULARNI BAHOLASH	1609
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIK.....	1616
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1620
Mardiyev Akrom Djumaboyevich	
BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA MUASSASALARINI NATIJADORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	1627
S.J. Sultanov	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS NAZORAT VA MOLIYIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1633
Ulashbayev Shohruh Abdivoxobovich	
BIOMASSA ASOSIDA OZUQA ISHLAB CHIQUARISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKGA ERISHISHNING AYRIM JIHATLARI	1639
Xazratkulov Niyoz Namazbayevich	
STRATEGIC MANAGEMENT AND DEVELOPMENT OF CORPORATE TALENTS	1644
Shoyunusova Arofat, Sanjar Mirzaliev	
AGROTIZIMDA ANOR YETISHTIRISHNING O'RNI VA IQTISODIY AHAMIYATI	1648
Ortiqov Sulton Davronqul o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATINI HOZIRGI KUNDAGI TAHLILI	1652
Mahmudova Chinora Anvar qizi	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA IMTIYOZLAR VA KAFOLATLAR TIZIMINING AHAMIYATI	1657
Nizamov Xusniddin Fazliddinovich	



SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	1663
Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li	
MINTAQAVIY RIVOJLANISH SHAROITIDA SHAHARLAR AGLOMERATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	1670
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR.....	1674
O'roqov Firdavs Ortiquyoz o'g'li	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И МЕТОДЫ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКЦИОНЕРНЫХ КОМПАНИЙ.....	1678
Бекбаева Феруза Бахтиеровна	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA BUDJET BILAN HISOB-KITOBBLAR AUDITINI TASHKIL QILISHNING AMALIY JIHATLARI.....	1684
Rashidov Zuhridin Sanjar o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1690
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАКТИКИ УПРАВЛЕНИЯ ВАЛЮТНЫМИ РИСКАМИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ	1695
Тугалов Бобур Қаршибой угли	
DYUZDO SPORTIDA JAROHATLAR PROFILAKTIKASI VA TIBBIY TIKLANISH USULLARINING SAMARADORLIGI.....	1699
Tangriyev Abdullo Tovashovich	
HAVO TRANSPORTI ORQALI YUK TASHUVCHI TADBIRKORLIK SHAKLLARI VA UNDAGI MUOMMOLAR	1703
Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	
HUDUDIY IQTISODIYOTDA INNOVATSION SIYOSAT MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING TIZIMLI MODELI	1709
G'aniyev Sanjar Poziljon o'g'li	
СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ УЧЕТА ЗАТРАТ И АУДИТА В УЗБЕКИСТАНЕ: НАЦИОНАЛЬНАЯ БАЗА И МСА.....	1716
Юлчиев Ойбек Улуғбек ўғли	
TIJORAT BANKLARIDA YANGI BANK XIZMATLARINI JORIY ETISHDA XORIJIY TAJRIBALARNI INTEGRATSIYALASH YO'LLARI	1723
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	



TIJORAT BANKLARIDA YANGI BANK XIZMATLARINI JORIY ETISHDA XORIJIY TAJRIBALARNI INTEGRATSIYALASH YO'LLARI

Umarov Abdulquddus Abdilxatovich

“HAMKORBANK” Andijon viloyati boshqarmasi boshlig'i

Annotatsiya. Jahon amaliyotida bank mahsulotlari bozorini rivojlantirishda mijozlarning moliyaviy savodxonligini oshirish orqali ularning yangi bank xizmatlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash maqsad qilingan. Hozirgi davrda moliyaviy texnologiyalar iqtisodiyotning yangi modelini shakllantirishga olib kelayotgan va raqamli iqtisodiyotning izchil rivojlanishini rag'batlantirayotgan tendensiya tobora kuchayib bormoqda. Bu jarayon bank tizimida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, raqamli xizmatlarni ommalashtirish hamda mijozlar bilan o'zaro aloqalarda ishonch va qulaylikni ta'minlash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: “Yo'l boshlovchi” robot, “virtual moliyaviy maslahatchi”, moliyaviy xizmatlar, tranzaksiyalar, blits-so'rov, ovozli xabar.

Abstract. In global practice, the development of the banking market aims to enhance clients' financial literacy and strengthen their trust in new banking services. Nowadays, financial technologies are shaping a new model of the economy and actively driving the advancement of the digital economy. This process enables the introduction of innovative approaches in the banking system, the expansion of digital services, and the establishment of stronger, trust-based relationships with clients.

Key words: "Leading" robot, "virtual financial advisor", financial services, transactions, quick survey, voicemail.

Аннотация. В мировой практике развитие банковского рынка направлено на повышение финансовой грамотности клиентов и укрепление их доверия к новым банковским услугам. В настоящее время финансовые технологии способствуют формированию новой модели экономики и активно стимулируют развитие цифровой экономики. Этот процесс обеспечивает внедрение инновационных подходов в банковскую систему, расширение цифровых услуг и укрепление доверительных отношений с клиентами.

Ключевые слова: «Ведущий» робот, «виртуальный финансовый консультант», финансовые услуги, транзакции, блиц-опрос, голосовое сообщение.

KIRISH

Bugungi kunda jahon amaliyotida bank mahsulotlari bozorini rivojlantirishda mijozlarning moliyaviy savodxonligini oshirish orqali ularning yangi bank xizmatlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash maqsad qilingan. Moliyaviy texnologiyalar iqtisodiyotning yangi modelini shakllantirishga olib kelayotgan jarayon sifatida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlashda xorijiy tajribalarni o'rganish va ulardan samarali foydalanishni taqozo etmoqda.

Yangi bank xizmatlarini joriy etish jarayonida bank mobil ilovalaridan keng foydalanish, ularda ovozli “yo'l boshlovchi” robot funksiyasining mavjudligi, xorijiy mamlakatlardan turib jismoniy shaxslar uchun masofaviy omonatlarni taklif etish, shuningdek, bank ilovalarida “virtual moliyaviy maslahatchi” funksiyasini rivojlantirish kabi innovatsion yo'nalishlar faol tadqiq qilinmoqda. O'zbekistonda xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda yangi bank mahsulotlarini keng joriy etish tendensiyalari va bu jarayonning muammolari nafaqat tijorat banklari, balki boshqa moliya institutlari faoliyati doirasida ham dolzarb masala hisoblanadi. Shu sababli, moliyaviy xizmatlarni tartibga solish bo'yicha amaldagi tendensiyalarni chuqur o'rganish va ularning asosida ilmiy yondashuvlarni shakllantirish zaruriyati ortib bormoqda [1].

XXI asrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida insonlarning moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabi va ehtiyoji sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Bunda asosiy e'tibor xarajatlarni qisqartirish, vaqtni tejash va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga qaratilgan. Moliyaviy xizmatlarni banklar tomonidan ko'rsatishda iste'molchilar uchun qulaylik va arzonlik mezonlari asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Shu



nuqtai nazardan, ikki muhim jihatni alohida ta'kidlash lozim: birinchidan, mavjud bank xizmatlarini yanada soddalashtirish va ulardan foydalanishni osonlashtirish; ikkinchidan esa, bank xizmatlarining yangi shakllarini zamonaviy talablar asosida joriy etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari masalasi bir qator xorijiy va o'zbekistonlik olimlar tomonidan ilmiy jihatdan chuqur o'rganilgan. Xorijiy tadqiqotlarda, xususan Rossiya olimlarining ilmiy ishlari bank xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu yo'nalishda N.V. Mironova, A.V. Penyugalova, A.I. Shkurenko, N.M. Perepechay, L.V. Sannikova, I.V. Shevchenko, O.A. Levitskaya, S.N. Yakovenko va A. Timchenko kabi olimlarning ilmiy izlanishlari alohida e'tiborga loyiqdir [2; 3]. Ularning tadqiqotlarida bank xizmatlarini modernizatsiya qilish, innovatsion yechimlarni joriy etish hamda moliyaviy texnologiyalarni bank tizimiga integratsiya qilish masalalari yoritilgan.

O'zbekistonlik olimlar orasida esa tijorat banklarida yangi bank xizmatlarini joriy etish, ularning samaradorligini oshirish hamda raqamli transformatsiya jarayonlarini rivojlantirish bo'yicha bir qator ilmiy ishlar olib borilgan. Jumladan, Sh.Z. Abdullaeva, A.A. Azlarova, O.F. Aliqoriev, S.S. G'ulyamov, N.X. Jumaev, R.A. Isaev, Z.T. Mamadiyarov, O.A. Ortiqov, D.A. Raxmonov, A. Rahimov, O. Ro'zieva, I. Toymuxamedov, Z. Umarov, E. Xoshimov hamda X.A. Xudayarovalarning ilmiy tadqiqotlari mazkur yo'nalishda muhim o'rin tutadi [4–6]. Ushbu olimlar o'z ishlarida tijorat banklarining innovatsion rivojlanish modeli, mijozlar ehtiyojiga yo'naltirilgan xizmatlarni takomillashtirish hamda raqamli moliyaviy mahsulotlarni kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratganlar.

Yuqoridagi tadqiqotlarda moliyaviy xizmatlarga nisbatan ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, O'zbekistonda bank xizmatlarining rivojlanishini hududlar kesimida tahlil qilishga oid izlanishlar yetarli darajada olib borilmagan. Shu sababli, ushbu tadqiqotni viloyatlar kesimida amalga oshirish — ya'ni mintaqaviy farqlarni aniqlash, mahalliy bank xizmatlarining innovatsion salohiyatini baholash va ularning rivojlanish istiqbollari ilmiy asoslash — dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi mamlakatimizda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar, xorijiy va mahalliy tajribalar hamda xalqaro tashkilotlarning rasmiy manbalariga tayangan holda shakllantirilgan. Tadqiqot jarayonida me'yoriy-huquqiy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari va Statistika agentligining rasmiy ma'lumotlaridan tizimli ravishda foydalanilgan.

Metodologiyada bank xizmatlarini rivojlantirish, yangi moliyaviy mahsulotlarni joriy etish hamda xorijiy tajribalarni milliy amaliyotga integratsiyalash bo'yicha tahliliy, taqqoslash, kuzatish va induktiv xulosalash usullari qo'llanilgan. Tadqiqot natijalariga asoslangan holda ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan ushbu ishning amaliy ahamiyati yanada ortadi.

Shuningdek, tadqiqotda empirik ma'lumotlarni tahlil qilish, statistik ko'rsatkichlar asosida umimlashtirish hamda xalqaro tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish kabi ilmiy yondashuvlar qo'llanilgan. Bu esa tadqiqotning ishonchliliigi va ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mijozlar uchun kredit olish jarayonini yanada qulaylashtirish maqsadida bank mobil ilovasi orqali ovozi ariza topshirish yoki xabar qoldirish imkoniyatini yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu innovatsion yondashuv, ayniqsa, katta yoshdagi aholining bank xizmatlaridan foydalanish faolligi pasayib borayotganini inobatga olgan holda, ularning ehtiyojlarini qondirish va bank tizimiga jalb qilish imkonini beradi. Shu asosda bank xizmatlarini yosh omiliga moslashtirish va har bir demografik guruh uchun individual yondashuvni shakllantirish zarur.

Shuningdek, mijozlar tomonidan xorijdan yuborilgan pul o'tkazmalarini mobil ilova yoki naqd shaklda qabul qilgan paytda ularni to'g'ridan-to'g'ri muddatli yoki jamg'arma omonatlariga yo'naltirish tizimini yaratish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv nafaqat mijozlarning jamg'arma faoliyatini rag'batlantiradi, balki bank resurs bazasini mustahkamlash va masofaviy omonat xizmatlariga bo'lgan ishonchni oshirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, bankning mobil ilovasida "virtual moliyaviy maslahatchi" funksiyasini joriy etish orqali mijozlarning moliyaviy savodxonligini oshirish, qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish hamda moliya bozoridagi xatti-harakatlarini tahliliy asosda shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa, o'z navbatida, bank va mijoz o'rtasida ishonchli, ochiq va samarali o'zaro munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi, demak, bunday tashabbusni amalga oshirish bank xizmatlari samaradorligini oshiruvchi strategik omil sifatida baholash mumkin (1-jadval).



1-jadval. “Hamkorbank” ATBda yangi bank xizmatlarini joriy etish samaradorligini oshirishda 2013–2024-yillarda bank daromadlari hajmiga ta’sir etuvchi omillar

Yillar	Banklarning daromadi	Pul o'tkazmalari daromadi	Komunal to'lovlar daromadi	Milliy kartalar daromadi	VASH+ Konversiya amaliyotlari daromadi	Infokiosk xizmati daromadi
2013	92574	7848	769	259	154	1256
2014	145223	8142	1158	314	168	1389
2015	377701,8	9171	1425	358	171	14569
2016	250056	9256	1589	402	189	2456
2017	312208	10422	1745	489	198	3578
2018	350558,4	10798	1988	503	202	4125
2019	405999,9	11214	3098	617	258	5012
2020	960469,5	11478	7852	6885	7892	10566
2021	1212560,7	12456	9851	9856	10115	12589
2022	1439168	13854	10122	11545	13563	14596
2023	1761307,7	15452	11266	18241	19589	12365
2024	2247952,3	16758	13459	21336	22158	9856

Shu maqsadda, dissertatsiya ishida Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan “Hamkorbank” ATB misolida yangi bank xizmatlarini joriy etish samaradorligini oshirish jarayoni ilmiy asosda tahlil qilindi. Tadqiqotda 2013–2024-yillar oralig’ida bank daromadlari hajmiga ta’sir etuvchi omillar ko’p omilli ekonometrik usullar yordamida o’rganilib, kelgusi yillar uchun bank daromadlari hajmining prognoz parametrlari ishlab chiqish maqsad qilib qo’yildi. Tadqiqot ishida ko’p omilli ekonometrik tahlil usuli qo’llanilib, unda natijaviy omil sifatida “Hamkorbank” ATBda yangi bank xizmatlarini joriy etish samaradorligini oshirishda bank daromadlari hajmi (Y , mlrd so’m) qabul qilindi. Unga ta’sir etuvchi omillar sifatida esa quyidagi ko’rsatkichlar tanlab olindi:

- X_1 – pul o’tkazmalari daromadi (mlrd so’m);
- X_2 – kommunal to’lovlar daromadi (mlrd so’m);
- X_3 – milliy kartalar daromadi (mlrd so’m);
- X_4 – VASH+Konversiya amaliyotlari daromadi (mlrd so’m);
- X_5 – infokiosk xizmati daromadi (mlrd so’m).

Dastlab tanlab olingan omillar o’rtasida korrelyatsion bog’lanish darajasi aniqlanib, ularning bank daromadlariga ta’siri yo’nalishi va kuchi baholandi. Ushbu bosqichda o’zgaruvchilar o’rtasidagi o’zaro ta’sirlar tahlil qilinib, ular orasidagi statistik bog’liqlik darajasini aniqlovchi korrelyatsion koeffitsiyentlar hisoblab chiqildi (2-jadval).

2-jadval. “Hamkorbank” ATBda yangi bank xizmatlarini joriy etish samaradorligini oshirishda bank daromadiga ta’sir etuvchi omillar o’rtasidagi korrelyatsion koeffitsiyentlar

	$Ln(Y)$	$Ln(X_1)$	$Ln(X_2)$	$Ln(X_3)$	$Ln(X_4)$	$Ln(X_5)$
$Ln(Y)$	1					
$Ln(X_1)$	0,9563461	1				
$Ln(X_2)$	0,975256	0,938441	1			
$Ln(X_3)$	0,949066	0,912323	0,9794042	1		
$Ln(X_4)$	0,9264119	0,877850	0,9650076	0,9965821	1	
$Ln(X_5)$	0,873275	0,7434815	0,7915760	0,7456057	0,7286449	1



2-jadvaldagi ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, natijaviy omil — "Hamkorbank" ATBda yangi bank xizmatlarini joriy etish samaradorligini oshirishda bank daromadi bilan ta'sir etuvchi omillar o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligi aniqlanadi. Xususan, bank daromadi bilan:

- pul o'tkazmalari daromadi ($r_{Y,X_1} = 0,9563461$),
- kommunal to'lovlar daromadi ($r_{Y,X_2} = 0,975256$),
- milliy kartalar daromadi ($r_{Y,X_3} = 0,949066$),
- VASH+Konversiya amaliyotlari daromadi ($r_{Y,X_4} = 0,9264119$),
- infokiosk xizmati daromadi ($r_{Y,X_5} = 0,873275$)

orasida yuqori darajadagi korrelyatsion bog'lanish kuzatilgan. Ushbu qiymatlar bank daromadlari hajmiga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi iqtisodiy aloqadorlikning kuchli zichlikda ekanini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, omillar o'rtasida $r_{X_1,X_2} < 0,8$ shart bajarilgani sababli multikollinearlik mavjud emas, ya'ni tanlab olingan omillar o'zaro ortiqcha bog'liqlikka ega emasligi aniqlangan. Shu sababli, ushbu omillar asosida regressiya tenglamasini aniqlash va bank daromadlari hajmini prognozlash jarayonini EViews dasturi yordamida davom ettirish imkoniyati mavjud.

Tadqiqot uchun tanlab olingan obyektlarning ko'rsatkichlari turli o'lchov birliklariga ega bo'lganligi sababli, ekonometrika qoidalariga muvofiq, ushbu ko'rsatkichlarning qiymatlarini natural logarifmlash (ya'ni logarifmik transformatsiya) tavsiya etiladi. Bu yondashuv o'zgaruvchilar o'rtasidagi nisbatlarni yanada aniqroq tahlil qilish va modelning statistik barqarorligini oshirish imkonini beradi (3-jadval).

3-jadval. "Hamkorbank" ATBda yangi bank xizmatlarini joriy etish samaradorligini oshirishda 2013–2024-yillarda bank daromadi hajmiga ta'sir etuvchi omillarning natural logarifmik qiymatlari

Yillar	Bankning daromadi	Pul o'tkazmalari daromadi	Kommunal to'lovlar daromadi	Milliy kartalar daromadi	VASH+ Konversiya amaliyotlari daromadi	Infokiosk xizmati daromadi
	$\ln Y$	$\ln X_1$	$\ln X_2$	$\ln X_3$	$\ln X_4$	$\ln X_5$
2013	11,44	8,97	6,65	5,56	5,04	7,14
2014	11,89	9,00	7,05	5,75	5,12	7,24
2015	12,84	9,12	7,26	5,88	5,14	9,59
2016	12,43	9,13	7,37	6,00	5,24	7,81
2017	12,65	9,25	7,46	6,19	5,29	8,18
2018	12,77	9,29	7,59	6,22	5,31	8,32
2019	12,91	9,32	8,04	6,42	5,55	8,52
2020	13,78	9,35	8,97	8,84	8,97	9,27
2021	14,01	9,43	9,20	9,20	9,22	9,44
2022	14,18	9,54	9,22	9,35	9,52	9,59
2023	14,38	9,65	9,33	9,81	9,88	9,42
2024	14,63	9,73	9,51	9,97	10,01	9,20

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillar davomida "Hamkorbank" ATBda yangi bank xizmatlarini joriy etish samaradorligini oshirish jarayonida bank daromadlari hajmi izchil ortib bormoqda. Ushbu o'sish bank tomonidan joriy etilgan raqamli yechimlar, innovatsion xizmatlar va mijozlarga yo'naltirilgan strategik yondashuv natijasida yuzaga kelgan.

Mazkur o'zgarishlar iqtisodiy tahlilda natural logarifmlash usuli yordamida qayta ishlanib, chiziqli bo'lmagan (nolinear) tenglama shaklida ifodalandi. Ushbu tenglama asosida bank daromadlariga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlik yo'nalishlari aniqlanib, ularning iqtisodiy mazmuni izohlandi.

Shuningdek, hosil qilingan model sifat mezonlari asosida — ya'ni R^2 (determinatsiya koeffitsiyenti), F-statistika va t-test ko'rsatkichlari orqali baholandi. Bu esa modelning statistik jihatdan ishonchliliigi va tahliliy aniqligini tekshirish imkonini beradi (4-jadval).



4-jadval. “Hamkorbank” ATBda yangi bank xizmatlarini joriy etish samaradorligini oshirishda bank daromadi hajmiga ta’sir etuvchi omillar bo’yicha ko’p omilli regressiya tenglamasi koeffitsiyentlari va uning ishonchliligini tekshirish

Method: Least Squares				
Sample: 2011 2022				
Included observations: 12				
Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
$\text{Ln}X_1$	0,585934098	0,882449582	0,663985921	0,531371017
$\text{Ln}X_2$	0,184597907	0,22543008	0,8188699	0,444160426
$\text{Ln}X_3$	0,981139057	0,81450872	1,20457772	0,273720987
$\text{Ln}X_4$	-0,601023644	0,530244852	-1,133483224	0,300261401
$\text{Ln}X_5$	0,322072117	0,058756339	5,48148711	0,00154127
C	0,344160458	6,648614492	0,051764237	0,960396892
R-squared		Mean dependent var		2.650580
Adjusted R-squared		S.D. dependent var		0.875244
S.E. of regression		Akaike info criterion		-1.361539
Sum squared resid		Schwarz criterion		-1.199904
Log likelihood		Hannan-Quinn criter.		-1.421382
F-statistic		Durbin-Watson stat		2.130497
Prob(F-statistic)				

4-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar asosida “Hamkorbank” ATBda yangi bank xizmatlarini joriy etish samaradorligini oshirishda bank daromadiga ta’sir etuvchi omillarni aks ettiruvchi ko’p omilli regressiya tenglamasi quyidagi shaklda hosil qilindi:

$$\text{Ln}(Y)=0,3441+0,5859*\text{Ln}(X_1)+0,1846*\text{Ln}(X_2)+0,9811*\text{Ln}(X_3)-0,6010*\text{Ln}(X_4)+0,3221*\text{Ln}(X_5) \quad (1\text{-formula})$$

Aniqlangan 1-formula asosida olingan regressiya tenglamasining parametrlarini t-Student mezon bo’yicha baholash natijasiga ko’ra, $\alpha = 0,05$ ishonchlilik darajasida va erkinlik darajasi $df = 8$ bo’lgan holda $t_{\text{jad}}/t_{\text{sub}} = 2,306$ ga teng deb qabul qilinadi.


Ushbu mezon asosida omillarning t-statistika qiymatlari bilan taqqoslanganda, faqatgina VASH+Konversiya amaliyotlari daromadi (X_4) uchun olingan $t_{\text{sub}}X_4 = -0,6010$ qiymati kritik chegaradan kichik bo’lgani sababli, mazkur o’zgaruvchining ta’siri statistik jihatdan ahamiyatsiz deb topildi. Biroq, bu natija salbiy emas, balki qo’shimcha tekshiruv talab qilinishini anglatadi.

Shu bois, X_4 omilining ahamiyatligini aniqlash maqsadida retrospektiv sifat mezonlari yordamida qo’shimcha baholash tavsiya etiladi. Bunda quyidagi mezonlardan foydalanish lozim:

- MAPE (Mean Absolute Percentage Error) — modelning o’rtacha mutlaq foiz xatosini ko’rsatadi va prognoz aniqligini baholashda asosiy mezonlardan biridir.

- TIC (Theil Inequality Coefficient) — Teyl koeffitsiyenti bo’lib, modelning prognoz natijalarini haqiqiy qiymatlar bilan solishtirish orqali aniqlik darajasini o’lchaydi.

Ushbu mezonlar yordamida X_4 parametrining prognoz ishonchliligi va modelga qo’shgan hissi yanada aniq baholanadi (1-rasm).



1-rasm. Regressiya parametrlarini retrospektiv sifat mezonlari natijalari

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, modelning prognoz aniqligi yuqori darajada ta'minlangan. Xususan, MAPE = 2,929% bo'lib, bu ko'rsatkich MAPE < 10% shartni qanoatlantiradi. Demak, modelning prognoz natijalari yuqori aniqlik bilan shakllangan.

Shuningdek, TIC = 0,0028 < 1 bo'lishi modeldagi xatolik darajasi juda past ekanligini anglatadi. Teyl koeffitsiyentining qiymati qanchalik nolga yaqin bo'lsa, modelning prognoz aniqligi shunchalik yuqori bo'ladi. Shu sababli, ushbu natijalar asosida 1-formulada berilgan regressiya tenglamasining barcha parametrlarining statistik ahamiyatligi tasdiqlanadi.

Matematik qoidalar va iqtisodiy tahlil prinsiplari nuqtai nazaridan hisob-kitob jarayonlarini soddalashtirish va natijalar aniqligini oshirish maqsadida yuqorida keltirilgan regressiya tenglamasi eksponentsial shaklga (potensial ko'rinishga) keltiriladi. Shunga muvofiq, quyidagi ko'p omilli regressiya tenglamasi hosil qilinadi:

$$Y = \frac{X_1^{0,585} \cdot X_2^{0,184} \cdot X_3^{0,981} \cdot X_5^{0,322} \cdot e^{0,344}}{X_4^{0,601}} \quad (2\text{-formula})$$

Hosil qilingan 2-formula asosidagi regressiya tenglamasining statistik ahamiyatligi $\alpha = 0,05$, $k_1 = 8$, $k_2 = 3$ bo'lgan holatda $F_{\text{jad}} = 8,8452$ qiymati bilan taqqoslandi. Hisoblangan Fisher mezon qiymati $F_{\text{his}} = 210,87$ bo'lgani uchun $F_{\text{his}} > F_{\text{jad}}$ sharti bajariladi. Bu natija regressiya tenglamasining statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini to'liq tasdiqlaydi. Bundan tashqari, Durbin-Watson koeffitsiyenti (DW = 2,13) modelda avtokorrelyatsiya mavjud emasligini bildiradi. Shu bois, regressiya tenglamasi ishonchli va adekvat deb baholanadi. Aniqlangan regressiya tenglamasining iqtisodiy mazmuni quyidagicha izohlanadi:

- Agar hozirgi kunda "Hamkorbank" ATBda yangi bank xizmati orqali 1 mlrd so'mlik pul o'tkazmalari amalga oshirilsa, bank daromadi hajmi o'rtacha 0,58 mlrd so'mga oshadi.
- Agar kommunal to'lovlar hajmi 1 mlrd so'mga ko'paytirilsa, bank daromadi qo'shimcha 0,184 mlrd so'mga o'sadi.
- Shu bilan birga, VASH+Konversiya amaliyotlari hajmi 1 foizga kamaytirilsa, bu bank daromadining o'rtacha 0,601 mlrd so'mga ortishiga olib keladi.

Bu natijalar shuni anglatadiki, yangi bank xizmatlarining rivojlanishi bankning daromad bazasini kengaytiradi va moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi. Vaqt omiliga asoslangan trend tenglamalari. Tadqiqotda regressiya tenglamasi asosida vaqt ($t = 13$) omili bo'yicha har bir ko'rsatkich uchun chiziqli trend modellari ishlab chiqildi. Ular quyidagicha ifodalanadi:

- Pul o'tkazmalari: $X_1 = 8,8874 + 0,0657t$
- Kommunal to'lovlar: $X_2 = 6,3249 + 0,2789t$
- Milliy kartalar: $X_3 = 4,3974 + 0,4669t$
- VASH+Konversiya amaliyotlari: $X_4 = 3,4039 + 0,5570t$
- Infokiosk xizmati: $X_5 = 7,4155 + 0,1887t$



Ushbu vaqtga bog'liq modellardan foydalangan holda besh omilli prognoz parametrlari ishlab chiqildi. Prognoz natijalari. Hisob-kitoblarga ko'ra, "Hamkorbank" ATBda yangi bank xizmatlarini joriy etish hisobiga:

- 2024-yilda bank daromadi 3 077 820,5 mlrd so'm, shundan:
 - o pul o'tkazmalari daromadi – 17 026,3 mlrd so'm,
 - o kommunal to'lovlar daromadi – 20 964,6 mlrd so'm,
 - o milliy kartalar daromadi – 35 141,1 mlrd so'm,
 - o VASH+Konversiya amaliyotlari daromadi – 41 979,3 mlrd so'm,
 - o infokiosk xizmati daromadi – 19 313,7 mlrd so'mni tashkil etishi kutilmoqda.

2027-yilga kelib esa, yangi bank xizmatlari joriy etilishi natijasida:

- bank daromadi hajmi 9 213 522,8 mlrd so'm, shundan:
 - o pul o'tkazmalari daromadi – 22 150,2 mlrd so'm,
 - o kommunal to'lovlar daromadi – 63 969,2 mlrd so'm,
 - o milliy kartalar daromadi – 227 456,9 mlrd so'm,
 - o VASH+Konversiya amaliyotlari daromadi – 389 626,0 mlrd so'm,
 - o infokiosk xizmati daromadi – 41 082,5 mlrd so'mni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

Bu natijalar "Hamkorbank" ATBda yangi bank xizmatlarining daromadlarni barqaror oshiruvchi va moliyaviy samaradorlikni mustahkamlovchi omil sifatida muhim rol o'ynayotganini ko'rsatadi (6-jadval).

6-jadval. "Hamkorbank" ATBda yangi bank xizmatlarini joriy etish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni baholash asosida bank daromadi hajmining 2029-yilgacha bo'lgan prognoz parametrlari

Yillar	Bankning daromadi	Pul o'tkazmalari daromadi	Kommunal to'lovlar daromadi	Milliy kartalar daromadi	VASH+ Konversiya amaliyotlari daromadi	Infokiosk xizmati daromadi
2025	3077820,5	17026,3	20964,6	35141,1	41979,3	19313,7
2026	4048451,0	18183,8	27708,1	56051,4	73272,1	23324,6
2027	5325182,5	19420,0	36620,8	89404,1	127891,5	28168,4
2028	7004547,9	20740,2	48400,5	142602,9	223226,0	34018,0
2029	9213522,8	22150,2	63969,2	227456,9	389626,0	41082,5

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, "Hamkorbank" ATBda yangi bank xizmatlarini joriy etish va rivojlantirish jarayonlari bank faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, bank daromadining o'sishi asosan tanlab olingan besh omildan to'rttasi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq, ya'ni bu omillar daromadning ortishiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bunda pul o'tkazmalari, kommunal to'lovlar, milliy kartalar hamda infokiosk xizmati daromadlarining o'sishi bank daromadlarini oshiruvchi asosiy omillar sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, VASH+Konversiya amaliyotlari o'zining teskari bog'liqlik xususiyati bilan ajralib turadi. Ya'ni, ushbu xizmat turi hajmining ortishi bankning sof daromadlarini qisqartiradi, aksincha kamaytirilishi daromad o'sishiga sabab bo'ladi.

Natijada, o'tkazilgan tahlillar shuni tasdiqlaydiki, "Hamkorbank" ATBda yangi bank xizmatlarini joriy etish va ularni boshqarish jarayonida yuqori samaradorlikka erishish imkoniyati yaratilgan. Bu esa bankning raqamli iqtisodiyot sharoitida barqaror daromad bazasini kengaytirish va innovatsion moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha strategik yo'nalishlarini mustahkamlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida "Hamkorbank" ATBda yangi bank xizmatlarini joriy etish samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator muhim ilmiy va amaliy xulosalar ishlab chiqildi.

Avvalo, bank mijozlarini jalb etilgan va potensial mijozlar toifalari bo'yicha tasniflash orqali moliyaviy xizmatlarni manzilli rivojlantirish zarurligi asoslab berildi. Bu yondashuv bank faoliyatida segmentlashtirilgan xizmatlarni joriy etish imkonini beradi. Ayniqsa, bankning mavjud mijozlari bo'lgan ish beruvchilarning xodimlari uchun ularning daromadi, yoshi, ma'lumoti va faoliyat sohasi kabi mezonlar asosida shaxsiylashtirilgan bank xizmatlarini taklif etish natijasida potensial mijozlarni doimiy mijozlarga aylantirish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, bankning mobil ilovasi orqali raqamli moliyaviy savodxonlikni oshirish maqsadida ovozli "yo'l boshlovchi" robot tizimini joriy etish taklif etildi. Ushbu tizim masofaviy bank xizmatlarining qulaylik darajasini oshiradi, mijozlarning raqamli ekotizimga ishonchini kuchaytiradi hamda bank xizmatlarining jozibadorligini sezilarli darajada oshiradi.



Chakana bank xizmatlarini takomillashtirish maqsadida mijozlar o'rtasida blits-so'rovlar o'tkazish tavsiya qilinadi. Bu orqali mijozlar fikri asosida xizmat turlarining tez ta'sir ko'rsatuvchi omillari aniqlanadi va xizmat sifati bozor talablariga moslashtirilgan holda takomillashtiriladi.

Bundan tashqari, mijozlar uchun ipoteka kreditiga ariza topshirish jarayonida xizmat ko'rsatuvchi bankning mobil ilovasi orqali ovozli xabar qoldirish imkoniyatini yaratish maqsadga muvofiq deb topildi. Bu tizim ariza topshirish jarayonini soddalashtiradi, vaqtni tejaydi hamda bank xizmatlaridan foydalanish qulayligini oshiradi.

Bankning mobil ilovasida "virtual moliyaviy maslahatchi" funksiyasini ishga tushirish orqali mijozlarning moliyaviy savodxonligini oshirish, qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish va moliya bozori imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkoniyatini kengaytirish taklif qilindi. Ushbu innovatsion yondashuv bank xizmatlari sifatini oshirish bilan bir qatorda, mijozlar ehtiyojlarini aniqroq tahlil qilish va qondirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, taklif etilgan chora-tadbirlar "Hamkorbank" ATBda yangi bank xizmatlarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka erishish, raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimining raqobatbardoshligini mustahkamlash, hamda mijozlar ishonchini oshirishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-yanvardagi PF-5296-son Farmoni — "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida." <https://lex.uz/uz/docs/-3494933>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni — "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida." <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. N.V. Mironova, A.V. Penyalova, A.I. Shkurenko, N.M. Perepechay, L.V. Sannikova, I.V. Shevchenko, O.A. Levitskaya, S.N. Yakovenko, A. Timchenko. Bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va moliyaviy xizmatlar bozoridagi innovatsiyalar. — Moskva: Akademiya, 2020.
4. Bell D. Gryadushchee postindustrialnoe obshchestvo. — Moskva: Akademiya, 1999.
5. Jumaev N.X., Nurmuratov A.M. (2019) Osnovnye napravleniya modernizatsii sistemy valyutnogo regulirovaniya v Uzbekistane v usloviyax liberalizatsii ekonomiki. // Innovatsionnye nauchnye issledovaniya v sovremennom mire: teoriya, metodologiya, praktika. Ufa, 6-may 2019-yil. — Betlar: 80-89.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
